

JAHON  
XALQ ERTAKLARI

# KIT VA FILNI MAG'LUB ETGAN QUYON



AKM YOSHILAR  
SEKTORI



JAHON  
XALQ ERTAKLARI

**KIT VA FILNI  
MAG'LUB ETGAN QUYON**



UO'K: 398.21(=512.133)  
KBK: 2(50'  
X 22

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

Kichkintoylar o'zlari tinglagan yoki o'qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o'saveradilar.

O'ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/21-12

ISBN 978-9943-07-759-1

© M. Omon tarjiması  
© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022

# KIT VA FILNI MAG'LUB ETGAN QUYON

*(Sharq xaq ertagi)*

Kunlardan bir kuni Quyon dengiz sohiliga sayr qilgani boribdi. U dengiz bo'yidagi suvo'tlarining muattar iforidan rohatlanib, u yerdagi mayin maysalardan yeb maza qilmoqchi bo'lgan ekan. Quyon aylanib yurib, kutilmaganda shu yaqin atrofda Fil bilan Kitga ko'zi tushibdi. Ular allaqanday jiddiy bir masalada o'zaro suhbatlashayotgan emishlar. Quyon bir ulkan xarsang tosh ortiga berkinibdi-da, sezdirmasdan ularning suhbatiga quloq solibdi.

– Aziz birodarim Fil, sen quruqlikda yashaydigan barcha hayvonlar ichida eng bahaybat va eng kuchlisan, salobat hamda viqor bilan – debdi Kit.




Men esa dengiz jonivorlari orasida eng ulkani va qudratlisiman. Bas, shunday ekan kel, ikkimiz birgalashib, quruqlik va dengizdagi barcha jonivorlar ustidan hukmron bo‘lamiz. Shu taklifimga nima deysan? Agar chindan ham biz kuchlarimizni birlashtirsak, unda hech kim bizga qarshi chiqa olmasdi, va hamma bizning izmimizda bo‘lar edi.

Kitning bu gaplari Filga juda ma‘qul kelibdi. U beixtiyor o‘zini barcha hayvonlar qarshisida qo‘rqqanidan dag‘-dag‘ qaltirab, ta‘zim qilib, hatto tiz cho‘kib, aytgan har bir so‘zini bajarishga shay turadigan buyuk hukmdordek his qilibdi. Shu sababli Fil Kitga qarab:

– Bu fikring juda ajoyib. Men taklifingga roziman. Sen aytgandek bo‘la qolsin! – debdi.





Shunday qilib, Fil bilan Kit sohildan uzoqlashibdilar. Quyvon esa berkinib olgan joyida, ancha payt angrayganча qolaveribdi. Keyin o'zicha fikr yurita boshlabdi:

– Bu ikkalasi nima deyishdi? Hali ular kuch bilan quruqlig-u dengizdagi barcha hayvonlarga hukmron bo'larmishmi? Kim bunga rozi bo'larkan? Yo'q,



bu ishni shunday qoldirib bo'lmaydi. Men hali bu zo'rovlarga, ular o'zlari o'ylaganchalik qudratli emasligini isbotlayman... Biz Quyonlar hech qachon va hech kimga bo'yin egmaymiz!

Ana shunday chuqur o'ylar bilan Quyon yana o'zining qadrdon o'rmonga qaytibdi. O'ylab-o'ylab u yovuz niyatli Kit va Filning o'rtasidagi razilona bu ittifoqni buzish va barcha hayvonlarni ular zulmidan qutqarib qolish, hayvonlarga ozod va erkin yashash imkoniyatini berish chorasini topibdi. U o'rmonga borib barcha do'stlariga o'zi eshitgan gaplarni to'kib solibdi, hamda ikkita ulkan zo'ravonlarning bunday yovuzligining oldini olishda do'stlaridan yordam so'rab ularga shunday debdi:

– Sizlar menga uzun va nihoyatda pishiq arqon to'qib berishingiz kerak bo'ladi. Uyog'iga nima bo'lishini esa hammangiz keyinroq bilib olasiz. Quyonlarning barchasi birgalashib, quyonning iltimosini bajarishibdi va unga:






– Mana birodar, arqonni ol, buyog‘iga nima qilsang, ixtiyoring. Biz sening aqlingga, jasoratingga ishonamiz, – deyishibdi.

Quyvon o‘rmondagi qadrdon do‘stlaridan minnatdor bo‘lib, Kitning huzuriga yo‘l olibdi.

Kitning oldiga borib, u o‘ta kamtarlik va hurmat bilan shunday debdi:

– Ey, dengiz maxluqlari ichidagi eng ulug‘ va yengilmas pahlavon. Ey, dengiz hukmdori! Sizga salomlar bo‘lsin. Agar izn bersangiz, bir iltimos ila keldim huzuringizga. Mendek ojiz va notavon bir jonivorga yordam qo‘lini cho‘zishingizdan umidvorman. Bunday mulozamatdan erib ketgan Kit:

– Gapir ey, notavon va ojiz kichkintoy, qulog‘im senda, – debdi o‘ta viqor bilan.



– Bilasizmi, ey pahlavon, buyuk qudrat sohibi, – deya gap boshlabdi Quyon ayyorlik bilan:


– Mening bisotimda bor-yo‘g‘i bittagina sigirim bor edi. Ana shu jonivor falokatmi, g‘aflatmi bosib, kutilmaganda botqoqqa botib qoldi. O‘zim shuncha harakat qilsam ham, uni botqoqdan chiqarib ololmadim. Axir ko‘rib turibsiz, men judayam kichkina va kuchsiz bir hayvoncha bo‘lsam. Sigirimni qutqarib



olish uchun arqon olib kelgandim. Ijizat bersangiz, men uni sizning qudratli dumingizga bog'lasam. Ishonchim komil, bu xayrli ishni siz bitta harakatda bajara olasiz. Bunday maqtovlardan yayrab ketgan Kit:

– Yaxshi, bog'la aroqoningni, – debdi Quyonga qarab. Quyon, o'zi keltirgan pishiq arqonning bir uchini Kitning dumiga mahkam qilib bog'lab, Kitga tushuntiribdi:

– Endi Kit janoblari, men borib arqonning ikkinchi uchini meni va sizni ham shunday tashvishlarga qo'ygan yaramas va noshud sigirimning bo'yniga bog'layman. Sizdan bir iltmos, to mening o'zim ovozli ishora bermaganumcha, arqonni tortmaysiz. Mening ishoramni eshitishingiz bilanoq, bor kuchingiz bilan arqonni tortishga kirishing.



– Shundan so‘ng, Quyon Filning yoniga qarab chopibdi. Uning oldida ham hurmat bilan bosh egib, Sigiri haqidagi voqeani bayon qilib, Fildan ham o‘tinch va umidvorlik bilan ko‘mak so‘rabdi:

– Ey, pahlavonlarning pahlavoni. Ey quruqlikdagi eng katta qudrat sohibi. O‘ylaymanki, Sizdek olijanob zotlar, mendek bechorani og‘ir ahvolda tashlab qo‘yishmaydi. Ularga doim yordam qo‘lini cho‘zadilar. Mana, ko‘rib turibsiz, men juda nochor, ojiz va kichkinagina jonivorman. Bisotimda sigirimdan boshqa hech vaqoyim yo‘q. Uni qutqarish uchun qo‘limdan hech ish kelmaydi, Mega yordam ko‘rsata olasizmi? Umidim Sizdan , – debdi.

– Xo‘sh buning uchun men nima qilay, ayt, nochor kichkintoy? – deb so‘rabdi Fil, pishillab.

– Buning uchun ijojazatingiz bilan men sizning qudratli mana shu xartumingizga arqonimni bog‘lasam. Siz arqonni bir tortishdayoq, sigirimni



botqoqdan qutqarishga qodirsiz. Bunga ishonaman, – debdi quvlik bilan Quyvon. Faqat arqonni tortishga o‘zim ishora beraman, kutib turasiz.

Fil Quyvonning taklifiga rozi bo‘libdi va birinchi ishoradayoq, arqonni bor kuchi bilan tortishga shaylanibdi.

Quyvon bu orada o‘rmondagi do‘stlarining yoniga yugurib boribdi-da, ularning barchasini o‘rmondagi baland tepalikka boshlab chiqibdi. Ushbu tepalik Fil bilan Kitning o‘rtasida joylashgan bo‘lib, yuqoridan ularning har ikkisi ham kuzatuvchilarga ko‘rinar, lekin tortishmachoqda ishtirok etuvchilar bir-birini ko‘ra olmas ekan. Xullas, Quyvon ikki tomonda shay turgan zo‘rovonlarga ishora berish uchun ho‘kiz shoxidan ishlangan ulkan burg‘uni puflab baland ovozda chalibdi.

Shu payt Quyvon va uning do‘stlari g‘aroyib hodisaga guvoh bo‘lishibdi:

Arqonni Kit bir tomonga, Fil ikkinchi tomonga qarab tortishga tushibdi. Arqon borgan sari taranglashib borayotgan emish. Biroq qancha chiranishmasin pahlovonlarning birortasi ham, bir qadam oldinga siljiy olishmabdi. Bu holdan har ikkisi ham rosa hayron qolishibdi.



– Yaramas, bu sigir buncha og‘ir bo‘lmasa, – deya o‘zicha g‘o‘ldirabdi Fil. Nazarimda men sigirni emas, biror ulkan daraxtni ildiz-pildizi bilan sug‘irayotganga o‘xshayman. U shunday deb, yelkasini yonidagi palma daraxtiga tirabdi-da, baland ovozda o‘kiringancha, yanada qattiqroq kuch bilan arqonni siltab tortishga tushibdi. Kit ham buni sezib o‘zicha o‘ylabdi:

– Nima balo, bu yaramas sigir bir yo‘la yerning ostiga kirib ketmoqchi bo‘layaptimi?! Yo‘q, men bunga yo‘l qo‘ymayman. U yaramas sigir mendan qochib qutula olmaydi! – Kit shunday deb, suvning ostiga yanada chuqurroq sho‘ng‘ib, jon-jahdi bilan arqonni tortqilabdi. Xullas, ularning har ikkisi ham biri-biridan qolishmasdan, hayqirib, o‘kirib, halloslab, terlab-pishib arqonni tortaveribdi, tortishaveribdi. Bu g‘aroyib holni tepalikdan tomosha qilib turgan quyonlar esa bu ikkita nodonning ustidan qotib-qotib kulishibdi.

– Bir mahal Fil arqonni xartumiga bir necha marta obdan aylantirib olib, juda katta kuch bilan o‘ziga tortgan ekan, Kit shovullab, ulkan to‘lqinlar bilan suvning ustiga chiqib qolibdi. Shunda ham Kit bu olishuvda yutqazishni hohlamay, yana kuchanib, suv ostiga tushib ketibdi.

Ana shunday qaltis holatlar bir necha bor takrorlanibdi, har gal kuchlar teng kelganda, ikki pahlavon yana shiddatliroq ishga kirishar ekan. Nihoyat, ular qirg‘oqda ro‘para kelib qolishibdi. Ikkisi ham ko‘zlariga ishonmasdan, hang-u mang bo‘lib qolishibdi.






– Hali senmiding, men bilan arqon tortishgan? – deya o‘kiribda Fil. Kit ham sira bo‘sh kelmasdan qichqira ketibdi:

– Nimaydi, sen o‘zingni mendan ham kuchli deb hisoblaysanmi? Men hozir senga kim kuchli ekanini ko‘rsatib qo‘yaman!!!

– Shundan so‘ng, ular battar qahr-g‘azabga to‘lib, yana arqon tortishishga tushib ketibdi. Biroq, endi bu bellashuv uzoq cho‘zilmabdi. Chunki qanchalik pishiq va puxta to‘qilganiga qaramasdan, yuzlab quyonlar tomonidan eshib to‘qilgan arqon kutilmaganda o‘rtasidan uzilib ikki tomonga ajralib ketibdi. Uning „chirt“ etgan ovozidan tomoshabin quyonlarning naqd yuragi yorilay debdi.


Natijada Kit xuddi qoyadan qulab tushgan ulkan xarsang toshdek, dengiz tubiga g‘arq bo‘libdi. Fil esa xuddi kuchli zarb bilan otilgan koptokdek,





Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/29-82


uzoq-uzoqlarga dumalab ketibdi. Shunday qilib butun olamga hukmronnikni istagan bu zolim pahlavonlar, bir-biridan jahli chiqib, darg'azab bo'lib ajralishib ketishibdi. Chunki ular o'z qilmishlari ya'ni tanasidagi kuchi va



zo'rovonligiga ortiqcha baho berishganidan, qolaversa bu bema'ni niyatlari uchun butun o'rmon ahli oldida sharmanda bo'lib, bosh ko'tarolmay qolishibdi.

Shu-shu Kit bilan Fil o'z hayotlarida boshqa hech qachon uchrashmaydigan, yuzko'rmas bo'lib ketishibdi.

Quyonglar esa butun dunyodagi hayvonlarga hukmronlikni istagan ikkita manman va nodon zo'ravonni kulgili va ayanchli holda ko'rganlaridan xursand bo'lib, bunday ibratli tomoshadan o'zlariga tegishli xulosa chiqarishibdi. Eng muhimi ular o'rmon va dengizdagi barcha birodarlarining erkinligini saqlab qolgan Jasur va aqlli Quyonga rahmat aytishni unutilishmabdi.



# NA U BILAN, NA BU BILAN

(Hind xalq ertagi)

Bir kuni barcha jonivorlar va qushlar o'zlariga podshoh tanlash uchun o'rmonga yig'ilishdi. Ular uzoq vaqt bahslashishdi:


– Biz sherni tanlashimiz kerak, – debdi qoplon. – Na hayvonlar orasida, na qushlar orasida unga teng keladigani yo'q.


Barcha jonivorlar qoplonning fikriga rozi bo'lishibdi, lekin qushlar bu fikrga qo'shilishmabdi. Ular o'zlari kabi ucha oladigan podshohni tanlashni xohlashardi. Keyin bir qush oldinga chiqib debdi:

– Hech shubha yo'qki, sher kuchli va aqlli hayvon, lekin u o'zining jasoratini faqat yerda ko'rsatishi mumkin, chunki u uchishni bilmaydi. Hatto eng kichkina qushcha ham, xohlasa uning yelkasiga o'tirib, zarar berishi mumkin. Shuning uchun siz yer yuzida ham, osmonda ham hukmronlik qila oladigan shohni tanlashingiz kerak.

Barcha qushlar ma'qullagan holda boshlarini qimirlatishdi: ularga do'stlarining taklifi yoqibdi. Birinchi qushdan keyin yana bir qush gapiribdi:

– Biz qirg'iyini shoh qilib tanlashimiz kerak. U bizning eng kuchlimiz va uchishda ham eng zo'r. Bundan tashqari, u yerga tushib, o'tkir tumshug'i va qattiq tirnoqlari bilan eng katta hayvonni ham yengishi mumkin.





Qushlar tumshuqlarini ochib ma'qullashdi. Ammo hayvonlar o'z fikrlarida qoldilar. Ular sherni shoh qilib saylamoqchi edilar.

Qushlar va jonivorlar to urushguncha o'zaro tortishib, bahslashardi. Faqatgina ko'rshapalaklar bahslarda ham, janglarda ham qatnashmadi. Ular qayerga borishni, kimning tarafini olishni hal qilisholmadi, chunki ular qushlardek ucha olsa ham, tuxum qo'ymas, bolalarini hayvonlar kabi sut bilan boqardi.

Shunday qilib, qushlar va hayvonlar o'rtasida shiddatli urush boshlandi. Hayvonlar qushlarni mag'lub etishdi. Ko'plab qushlar o'ldi, boshqalari qo'rqib, har tomonga tarqalib ketdi. Ko'rshapalaklar hayvonlarning g'alaba qozonganini ko'rgach, darhol ularga qo'shilib olishibdi va ulardan biri:

– Hurmatli hayvonlar, bizni qush, deb o'ylamang. Biz uchishni bilsak ham, siz kabi bolalarimizni tug'ib, sut bilan boqamiz.

Yirtqich hayvonlar o'zlarining g'alabalaridan mast bo'lib, ko'rshapalaklarning ularga qo'shilishidan xursand bo'lishibdi.

Bu orada qochishga muvaffaq bo'lgan qushlar xavfsiz joyga yig'ilib, hayvonlarni qanday yengish haqida o'ylay boshladilar.

– Agar biz yerdagi hayvonlarga qarshi kurashsak, hech qachon g'alabaga erisha olmaymiz, – debdi ulardan biri. Biz hammamiz o'lamiz, boshqacha bo'lishi mumkin emas. Biz hayvonlarga havodan hujum qilishimiz kerak. Shundagina biz ularni mag'lub eta olamiz.

Qushlarga bu taklif yoqibdi va shunday yo'l tutushibdi. Ular o'tkir tirnoqlari va tumshuqlari bilan hayvonlarga juda ko'p jarohat yetkazibdilar. Buni ko'rgan ko'rshapalaklar qushlar tomonga o'tib olishibdi va:

– Bilmaysizmi, muhtaram qushlar, biz sizlarga mansubmiz? Garchi ko'rshapalaklar hayvonlar kabi, o'zlari bola tug'ib, ularni sut bilan boqsalar ham, boshqa jihatdan qushlardan farq qilmaydi. Ular hatto siz kabi uchib yurishadi.



Qushlar esa ko‘rshapalaklarning ularga qo‘shilishidan xursand bo‘lishdi. Uzoq vaqt davomida hayvonlar va qushlar o‘zaro jang qilishni davom ettirdilar, oxir-oqibat ular tinchlikka erishdilar. Bundan buyon lochin osmonda, sher esa yerda hukmronlik qiladi, deb qaror qilinibdi. Barcha hayvonlar va qushlar bunga rozi bo‘lishibdi.

Keyin hamma umumiy ziyofat uchun yig‘ilib, qo‘shiq aytish va raqs-ga tushishni boshladilar. Ko‘rshapalaklar ham ushbu bayramda qatnashmoqchi edilar. Ular hayvonlarning oldiga o‘rmaslab boribdilar. Hayvonlar esa ularni quyidagi so‘zlar bilan haydab yuborishibdi:


– Sizlar qushsizlar! Boring, o‘z qavmingiz tafarga!

Ko‘rshapalaklar qushlar oldiga uchib borishibdi. Ular esa:

– Sizlar hayvonsizlar! O‘zingiznikilarning oldiga boringlar! Bizda sizga joy yo‘q!

Ko‘rshapalaklar qo‘rqib, barglar orasiga yashirinishibdi. Ular kun bo‘yi o‘z boshpanasida o‘tirishibdi va faqat tunda, hayvonlar va qushlar uxlab qolgach, u yerdan uchib chiqishibdi.

Aytishlaricha, mana shuning uchun ko‘rshapalaklar hayvonlar va qushlardan qo‘rqib, kunduzi ko‘zga ko‘rinmas ekanlar.



82(50')  
X 22

Kit va filni mag'lub etgan quyon / [Matn]:  
ertak. – Toshkent: „Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ,  
2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)  
KBK 82(50')

**RASSOM:**

SHOHRUX TOSHTURDIYEV

# JAHON XALQ ERTAKLARI

„Ensiklopediya“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Tarjimon *Muhiddin Omon*  
Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*  
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*  
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 29.10.2022. Bichimi 84×108<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
„Times New Roman“ garniturası. 14 kegl.  
Hisob-nashriyot tabog'ı 1,05.  
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 866-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya\_nashriyoti\_MU2021



Ensiklopediya\_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591